



## ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
**2023- yil yanvar-aprel**




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasi-dandir.

2023- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **7 534** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **12** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **7 522** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **5 703,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **3,2 %** ga o'sdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **418,7** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **9,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 778,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **2,8 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **607,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **92,7 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>5 703,9</b>	<b>103,2</b>	<b>418,7</b>	<b>109,3</b>	<b>5 285,2</b>	<b>102,8</b>
Andijon sh.	2 008,4	105,4	286,0	121,5	1 722,4	103,1
Xonobod sh.	70,2	102,9	2,5	91,2	67,7	103,4
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko'l	182,3	100,4	6,8	141,1	175,4	99,3
Andijon	333,7	101,4	26,9	56,1	306,8	109,1
Baliqchi	202,0	100,8	16,3	124,4	185,7	99,1
Bo'ston	97,0	101,2	5,8	108,0	91,3	100,8
Buloqboshi	252,7	100,9	2,7	56,9	250,1	101,7
Jalaquduq	252,9	104,5	14,4	278,7	238,4	100,7
Izboskan	203,9	102,2	5,2	183,7	198,8	101,0
Ulug'nor	90,8	101,1	0,7	61,5	90,1	101,6
Qo'rg'ontep'a	184,7	102,3	4,3	53,8	180,4	104,6
Asaka	309,3	103,2	17,3	82,7	292,0	104,7
Marhamat	276,5	100,5	5,6	85,1	270,9	100,8
Shahrixon	671,0	103,4	9,9	102,9	661,1	103,4
Paxtaobod	312,7	102,9	7,1	80,4	305,6	103,6
Xo'jaobod	255,9	100,4	7,3	124,8	248,6	99,8

2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**5,3 %**), Asaka (**2,2 %**), Paxtaobod, Ulug'nor (**0,8 %**) va Oltinko'l (**0,6 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

**Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-aprel, foizda)




So‘nggi 5 yillikda (2018- 2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘sish sur’ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **109,9 %** ni yoki **4 387,9 mlrd so‘mni** tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati  
oylar kesimida (foizda)**  
(2022- yil, 2023- yil yanvar-aprel oylari)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida o‘sish sur’ati 103,2 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **35,2 %** bilan **2 008,4** mlrd so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,2 %** bilan **70,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovaraylan masi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, **5 285,2** mlrd so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **2,8 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,7 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **9,3 %** ga o‘sdi va **418,7** mlrd so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **7,3 %** ulushiga to‘g‘ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (**99,2 %**), Buloqboshi (**98,9 %**), Shahrixon (**98,5 %**) va Marhamat (**98,0 %**) va tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**14,2 %**), Baliqchi, Andijon (**8,1 %**) va Bo'ston (**5,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 712,7</b>	<b>101,1</b>
Andijon shahar	4 279,6	103,2
Xonobod shahar	1 556,5	100,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	961,8	98,0
Andijon	1 188,7	99,1
Baliqchi	953,6	98,7
Bo'ston	1 270,0	99,2
Buloqboshi	1 682,6	98,9
Jalaquduq	1 292,7	102,5
Izboskan	812,8	100,2
Ulug'nor	1 438,6	99,2
Qo'rg'ontep'a	815,4	100,6
Asaka	888,0	101,0
Marhamat	1 511,9	98,4
Shahrixon	2 110,8	101,0
Paxtaobod	1 527,6	100,7
Xo'jaobod	2 177,8	97,8

2023- yilning yanvar-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 712,7** ming so'mni (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **1,1 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**4 279,6** ming so'm), Xo'jaobod (**2 177,8** ming so'm) va Shahrixon (**2 110,8** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **846,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **4,5 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **360,2** mlrd so'mni (**130,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **486,0** mlrd so'mni tashkil etdi (**91,2 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)




## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>846,2</b>	<b>104,5</b>	<b>360,2</b>	<b>130,1</b>	<b>486,0</b>	<b>91,2</b>
Andijon shahar	201,3	119,7	121,0	157,3	80,4	88,0
Xonobod shahar	1,3	60,8	1,3	60,8	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko'1	15,7	139,1	7,7	164,9	8,0	120,9
Andijon	29,6	95,6	29,6	95,6	-	-
Baliqchi	46,5	83,9	14,4	275,0	32,1	64,0
Bo'ston	7,2	130,9	2,7	121,6	4,5	137,2
Buloqboshi	29,2	100,8	5,1	80,2	24,1	106,6
Jalaquduq	22,5	130,3	5,1	139,4	17,3	127,8
Izboskan	7,2	93,2	1,9	94,9	5,3	92,6
Ulug'nor	29,3	101,6	0,7	60,0	28,6	103,4
Qo'rg'ontep'a	24,7	119,9	14,2	137,1	10,6	102,6
Asaka	97,4	118,7	39,5	124,5	58,0	115,1
Marhamat	42,1	73,6	16,6	89,3	25,5	66,1
Shahrixon	170,4	108,9	64,9	143,4	105,4	94,8
Paxtaobod	84,9	101,4	31,2	123,8	53,7	91,7
Xo'jaobod	36,8	69,0	4,2	41,0	32,6	75,7

- – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;
- – jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-aprel oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **360,2** mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**121,4** mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd so‘m
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>121,4</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>105,7</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>47,9</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>15,0</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) <b>15,6</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>9,6</b>
	<b>Tuxum</b> <b>11,2</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</b> <b>1,9</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>15,4</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>9,5</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>2,2</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>2,4</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-aprel oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **486,0** mlrd so‘nni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **409,6** mlrd so‘m, qo‘y va echkilar - **68,1** mlrd so‘nni, otlar - **4,3** mlrd so‘nni, parrandalar - **4,4** mlrd so‘nni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd so‘m
 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	<b>242,9</b>
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	<b>66,8</b>
 1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	<b>99,8</b>
 Qo‘ylar	<b>66,3</b>
 Otlar	<b>4,3</b>
 Echkilar	<b>1,8</b>
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	<b>2,4</b>
 Tovuqlar	<b>1,2</b>
 Quyonlar	<b>0,2</b>
 Qushlar	<b>0,1</b>

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni **1 247** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 245** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi **2,0 %** ni tashkil etib, **79,7** mlrd so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,6 %** ga o‘sdi. Bunda savdo aylanmasining **91,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

	Jami mlrd so‘m	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so‘m	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd so‘m	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>109,3</b>	<b>104,2</b>	<b>8,7</b>	<b>155,4</b>	<b>109,3</b>	<b>101,4</b>
Andijon sh.	52,3	112,9	8,7	155,4	43,7	107,1
Xonobod sh.	1,5	100,6	-	-	1,5	100,6
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko‘l	4,6	95,3	-	-	4,6	95,3
Andijon	6,2	84,9	-	-	6,2	84,9
Baliqchi	2,1	104,3	-	-	2,1	104,3
Bo‘ston	2,5	95,5	-	-	2,5	95,5
Buloqboshi	1,3	110,2	-	-	1,3	110,2
Jalaquduq	2,2	96,0	-	-	2,2	96,0
Izboskan	3,2	104,2	-	-	3,2	104,2
Ulug‘nor	1,1	117,2	-	-	1,1	117,2
Qo‘rg‘ontepa	3,3	85,8	-	-	3,3	85,8
Asaka	4,7	107,7	-	-	4,7	107,7
Marhamat	3,0	80,1	-	-	3,0	80,1
Shahrixon	13,1	91,2	-	-	13,1	91,2
Paxtaobod	3,7	100,0	-	-	3,7	100,0
Xo‘jaobod	4,4	163,0	-	-	4,4	163,0

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 028,7** mldr so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **10,6 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **477,4** mldr so'm (o'sish sur'ati - **26,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi - **551,3** mldr so'mni (o'sish sur'ati - **0,3 %** kamaygan) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mln so'm	Ulushi, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 028 714,9</b>	<b>110,6</b>
Andijon sh.	768 776,5	121,3
Xonobod sh.	219,7	100,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	29 157,6	231,1
Andijon	2 625,5	9,4
Baliqchi	21 161,2	195,2
Bo‘ston	291,8	83,3
Buloqboshi	280,7	105,8
Jalaquduq	60,5	137,1
Izboskan	140,4	70,2
Ulug‘nor	210,6	122,1
Qo‘rg‘ontepa	140,4	0,7
Asaka	103 900,6	108,4
Marhamat	272,5	15,0
Shahrixon	495,7	13,6
Paxtaobod	280,7	71,0
Xo‘jaobod	100 700,6	81,9

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**768,8** mlrd so'm), Xo‘jaobod (**100,7** mlrd so'm) va Asaka (**103,9** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 451,7** mlrd so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,3 %** ga oshdi.



**Savdo aylanmasi ulushi**



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 308,6** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,5 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **90,1 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES KORXONALARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Jalaquduq (**6,7 m.**), Oltinko'l (**5,1 m.**) va Marhamat (**2,2 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 795** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **10** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 785** tani tashkil qildi.

	Jami mln so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mln so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mln so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 451 701,7</b>	<b>101,3</b>	<b>143 101,5</b>	<b>99,6</b>	<b>1 308 600,2</b>	<b>101,5</b>
Andijon sh.	598 876,3	117,8	119 036,1	96,1	479 840,2	124,9
Xonobod sh.	7 595,2	113,7	5,3	2,3	7 589,9	117,6
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko'l	77 319,2	105,4	4 875,2	5,1 m.	72 444,0	98,9
Andijon	110 148,1	77,8	8 077,0	44,6	102 071,1	82,7
Baliqchi	89 254,0	95,6	117,1	94,2	89 136,9	95,6
Bo'ston	27 998,4	81,5	40,8	56,8	27 957,7	81,5
Buloqboshi	35 118,0	80,2	-	-	35 118,0	80,2
Jalaquduq	18 552,4	125,4	5 856,5	6,7 m.	12 695,9	86,3
Izboskan	25 139,8	95,0	35,6	8,9	25 104,1	96,3
Ulug'nor	9 598,5	55,3	12,4	28,1	9 586,1	55,4
Qo'rg'ontep'a	45 932,9	92,8	-	-	45 932,9	92,8
Asaka	58 983,3	119,6	2,3	5,1	58 981,0	119,7
Marhamat	24 827,6	106,1	4 743,3	2,2 m.	20 084,3	86,6
Shahrixon	280 322,8	90,2	43,6	43,3	280 279,2	90,2
Paxtaobod	22 803,2	88,4	51,1	37,4	22 752,1	88,7
Xo'jaobod	19 232,1	137,1	205,3	142,1	19 026,8	137,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Tel. - 74 228-30-57**